



MEHMONXONA XO'JALIGI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Raximov Faxriddin Shavkatovich

Magistrant talaba, Urganch davlat universiteti

faxriddinraximov.uz@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7830404>

ARTICLE INFO

Received: 04th April 2023

Accepted: 13th April 2023

Online: 14th April 2023

KEY WORDS

Buxgalteriy hisobi, Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (MHXS), aktiv schyot, passiv schyot, moliyaviy natija, balans, daromad, xarajat, mehmonxona biznesi, konsepsiya, investitsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqola Mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirishda Moliyaviy hiobni Xalqaro standartlaridan foydalanishni joriy etish ko'zda tutilgan. Mehmonxona xo'jaligi korxonalarda moliyaviy hisobni yuritish tartibida unga bevosita aloqador bo'lgan buxgalteriya hisobining milliy standarti Hisob siyosati va Moliyaviy hisobotlarni konseptual asoslari xalqaro standartlarga mos ravishda tarkiblanishi va tasniflanishi o'rganilgan.

KIRISH.


Bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarida jadal su'ratlar bilan o'zgarish va rivojlanishni kuzatish mumkin, xususan buxgalteriya hisobi tizimida ham. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud, misol uchun buxgalteriya hisobi tashkil etish kontseptsiyasidan boshlaydigan bo'lsak, to'liqroq va aniqroq ko'rib chiqish uchun quyidagi rasmga murojat etish kerak (1-rasm).

Respublikadagi buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga muvofiq tashkil etish va yuritish, shuningdek, iqtisodiy rivojlangan davlatlarida yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi uchun zarur bo'lgan eng asosiy tamoyillarni respublikamiz xo'jalik subyektlarida ayniqsa mehmonxona xo'jaligidagi korxonalarda joriy etish muhim hisoblanadi. Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilmoqda, ular esa o'z asosida xalqaro standartlarga tayanadi va respublikamizda hisob va boshqaruv tizimining xususiyatlarini e'tiborga oladi. Masalan, kichik biznes sub'ektlarini yanada rivojlantirish maqsadida 20-sonli "BHMS" qabul qilingan, ya'ni buxgalteriya hisobini soddalashtirgan tartibda tashkil etish mazkur milliy standartda o'z aksini topgan.

Buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o'rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo'llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida hisoblash texnikalaridan foydalanishini belgilab olish kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligini «Buxgalteriya hisobi va audit uslubi» boshqarmasi hisobning barcha turlari bo'yicha rahbarlikni olib boradi. Moliya vazirligining

ushbu boshqarmasi hisob ishlarini avtomatizatsiyalash, hisob mutaxassislarini tayyorlash, ular malakasini oshirish, shuningdek, hisob ishlari bilan bog'liq yo'riqnomalar, nizomlar, ko'rsatmalar ishlab chiqib, nashr qildiradi.[1]



1-rasm. Buxgalteriya hisobini tashkil etishning kontseptsiyasi.[2]

O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Makroiqtisodiyot statistika vazirliklari birgalikda buxgalteriya hisobi schetlar rejasini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni shakllarini ishlab chiqadi, ularni qo'llashga doir yo'riqnomalar ham shu vazirliklar tomonidan tasdiqlanadi.

Xozirgi vaqtda Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi, uslubiyati boshqarmasi tomonidan buxgalteriya hisobining milliy standarti ishlab chiqilib ularning 24 tasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tdi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimini asosiy huquqiy zamini «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonunda belgilangan. Ushbu qonunda buxgalteriya xodimlarini burch va huquqlari, buxgalteriya hisobi miqyosida korxonalar rahbarlari va buxgalteriya hisobi tizimidagi asosiy maqsadlar, vazifalar, hamda tamoyillar ko'rsatib o'tilgan.[1]

Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobini me'yoriy tartibga solishni to'rt darajali tizimi ko'zda tutilgan (2-rasm).

Mehmonxona biznesida buxgalteriya hisobidan tadbirkorlar - mulk egalari manfaati uchun foydalaniladi. Shuni ta'kidlash lozimki, bunda buxgalteriya hisobi tadbirkorlar uchun nafaqat hisobot tuzish, balki eng avvalo korxonalar faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish uchun ishlab chiqarishni boshqarish quroli sifatida xizmat qiladi.



Birinchi daraja – qonuniy dalolatnomalar, masalan, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun.

Ikkinchi daraja – asosiy qoidalar yig'indisi, ya'ni buxgalteriya standartlari

Uchinchi daraja – mamlakat va turli tarmoqlar bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish yuzasidan takliflar va metodik qo'llanmalar.

To'rtinchi daraja – hisob siyosatini aniqlash va hujjat aylanishini tashkil etish yuzasidagi korxonada ishlab chiqilgan hujjatlarni keltirish mumkin.

2-rasm. Xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobini tartibga solishni darajali tizimi.[3]

Mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining ma'lumotlari mulkchilikning turli shakllari va sog'lom raqobatchilikning rivojlanishi sharoitida obyektiv ravishda tashqi - e'lon qilinadigan va ichki - tijorat siri hisoblangan qismlarga bo'linishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya-bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi".[4]

Moliyaviy xizmatlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish mehmonxona biznesiga xorijiy investorlarni jalb qilish imkoniyatini yanada oshiradi. Bugungi kunda iqtisodiyotimizga bozor elementlari va xalqaro tajribalarning tadbiq etilib borilishi, barcha xo'jalik tarmoqlarini modernizatsiyalash negizida, ularni axborot ta'minotining asosi bo'lgan buxgalteriya hisobi va hisobotlarni tuzish hamda taqdim etishning takomillashtirish zaruriyati yuzaga keldi. Aynan, mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirishning hozirgi holatini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Korxonalar hisob siyosatining tashkiliy jihatlari to'g'risida iqtisodchi olimlar turlicha fikr berganlar. Jumladan, N. Jo'rayev quyidagilarni ta'kidlagan: «Hisob siyosatining tashkiliy tomonida buxgalteriya hisobi xizmatining tashkiliy shakli, buxgalteriya hisobining tarkibi, hisobning markazlashish darajasi va aksiyadorlik jamiyatlari bo'linmalarini alohida balansga o'tkazish kabi masalalardir».[5]

S.R.Egamberdiyeva esa, "Bizningcha, innovatsion ishlab chiqarish jarayonlar samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlariga mos keladigan innovatsion hisob tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun xo'jalik subyektlari moliyaviy hisob bilan birgalikda albatta boshqaruv hisobini tashkil etishi



va analitik ma'lumotlar bazasini yaratishlari lozim deb hisoblaymiz. Chunki aniq manzilli ma'lumotlarni yetkazib berish asosan boshqaruv hisobining vazifasi hisoblanadi".[6]

S.Tashnazarov ilmiy tadqiqotida "Moliyaviy hisobotni boshqaruvning muhim dastagi sifatida modernizatsiyalash deganda, moliyaviy hisobotning tarkibi va mazmunini axborot foydalanuvchilar manfaatlariga muvofiqlashtirish, axborotlarga ishlov berish va ularni uzatishda eng ilg'or usul va uslublarni hamda takomillashgan hisobot shakllarini joriy qilish tushuniladi. ... Bizning fikrimizcha, dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg'or tajribasidan kelib chiqib, transformatsion ishchi balans tuzish amaliyotiga o'tishimiz kerak. Ishchi balans schyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o'tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval (registr) hisoblanadi." deb o'z fikrini bildirgan.[7]

TADQIQOQ METODOLOGIYASI.

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan mavzuga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar o'rganilib mushohada qilingan. Tadqiqotda belgilangan maqsadga erishish uchun yo'nalish tanlab olingan. Empirik tadqiqotning kuzatish, jamlash, guruhlash va ma'lumotlar manbalari o'rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi mulkchilikning har qanday shaklidagi korxonalar xo'jalik faoliyatini yalpi, uzluksiz va hujjatlarga asoslangan holda aks ettirish tizimidir. Chunki u kunma-kun yuritiladi va barcha xo'jalik hodisalari va jarayonlarini yalpi tarzda qayd etadi.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan 20-sonli "BHMS"ga asosan[8] O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini meyoriy asosda boshqarish tizimining bir qismi hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarida chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayonlari umumtan olingan xalqaro meyorlar va standartlarga o'tish hamda ularga amal qilishga bo'lgan talablarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda "1 ta xalqaro konseptual asos, 29 ta Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari (BHXS) va 17 ta Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) va 33 ta standartlarga interpretatsiyalar".[9] amaliyotga joriy qilingan.

1 -jadval. Moliyaviy hisobotning asosiy majburiy shakllari.[7]

N^o	Byxralteriya hisobi to'g'risidagi qonunda	MHXSlariga muvofiq holda taklif etiladi
1	Buxgalteriya balans	Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot
2	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	Foyda va zararlar hamda boshqa to'plam daromadlar to'g'risidagi hisobot
3	Pul oqimlari haqidagi hisobot	Pul oqimlari haqidagi hisobot
4	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	Xususiy kapitalning o'zgarishi to'g'risidagi hisobot
	Izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar	Izohlar, hisob siyosatining qisqacha tavsifi va boshqa tushuntirishlar

Hisob va hisobotni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, shu asosda moliyaviy hisobotning dunyo miqyosida garmonizatsiyasiga erishish, ilg'or tajribalardan milliy darajada samarali foydalanish barcha mamlakatlar uchun eng dolzarb masaladir. Mehmonxona xo'jaligi subyektlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari"da keltirilgan asosiy tamoyillarga asosan hisob va hisobot ishlari shakllantiriladi.


Tadqiqotlar shuni tasdiqladiki, O'zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo'llashda yuzaga keladigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

- MHXS alohida qoidalarini qo'llash amaliyoti masalalari bo'yicha mos keluvchi uslubiy ko'rsatmalar va izohlar mavjud emasligi tufayli amaldagi va yangi standartlarni mutaxassislar tomonidan qabul qilish qiyinligi hamda axborot yetishmasligi;
- O'zbekistonda MHXSni qo'llash amaliyoti umumlashtirilgan tahlilining mavjud emasligi;
- MHXS bo'yicha mutaxassislar va malakali kadrlar yetishmasligi;
- MHXS bo'yicha hisob va hisobot yuritish avtomatlashtirilgan dasturlari, shuningdek, ularga xizmat ko'rsatish bahosining yuqoriligi.

Shu munosabat bilan MHXSni joriy etish, mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobini isloh qilish, uni sifatli, obyektiv, foydali va talab yuqori bo'lgan axborot yaratishning samarali vositasiga aylantirish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi. Axborotlardan foydalanuvchilarning moliyaviy hisobot axborotlariga qiziqishi ortib borishi sharoitida, uning ishonchliligini ta'minlash muammosini hal qilishda axborotning roli oshib boradi.

Milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish uchun, avvalo, BHMSlarni MHXSlarga moslashtirish zarur.

Buxgalteriya apparati va uning tarkibini belgilashda kichik tadbirkorlik subyekti toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalarida xizmat ko'rsatish faoliyatining hajmi va uning tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, buxgalteriya apparati va tarkibini tashkil qilishga korxonaning moliyaviy va investitsion faoliyati ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi (3-rasm).



3-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlaridagi buxgalteriya hisobini mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib tashkil qilish.

Agar BHXSda qaysidir jarayon bo'yicha aniq aks ettirish tartibi yo'q bo'lsa, mehmonxona xo'jaligi korxoanasining rahbariyati moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun foydaliroq bo'lgan ma'lumotni shakllantirish uchun hisob siyosatida o'z mulohazasini yuritib qaror qabul qilishi mumkin.



Shuni alohida ta'kidlash lozimki, buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibini tanlash huquqi kichik tadbirkorlik subekti toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalariga ixtiyoriylik asosida beriladi.

Kichik biznes subyektlari toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalarida tuziladigan boshlang'ich hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi, shuningdek hujjatlar aylanmasini amalga oshirish tartibi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunga va "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risida"gi nizomga muvofiq tartibga solinadi.[8]

Hisobni soddalashtirilgan shaklda tashkil etish uchun kichik biznes subyektlari toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalarida xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ishchi schyotlar rejasini tuzishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining 5-moddasi "Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish" deb nomlangan moddaning ikkinchi xat boshida "Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari, shu jumladan kichik tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi" deb ko'rsatilgan. Ushbu qonun talablari asosida 20-sonli BHMS[8] tasdiqlandi. Ushbu normativ hujjatlar asosida kichik biznes toifasidagi mehmonxona xo'jaligi subyektlari ixtiyoriy ravishda buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shaklini yuritishlari mumkin. Buxgalteriya hisobining soddalashtirilgan shakli quyidagilar:[10]

- buxgalteriya hisobining oddiy shakli;
- buxgalteriya hisobining kombinatsiyalashgan shakli.

Mehmonxona xo'jaligi korxonasida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishda buxgalteriya kadrlari malakasi yetishmasligi muammo tug'dirishi mumkin shu sababli O'zbekiston Respublikasi Moliya Vaziri buxgalteriya hodimlarni o'qitish maqsadida ushbu "Moliyaviy hisobotning Xalqaro standartlari bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlari qoplab beriladigan Buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar va xalqaro buxgalter sertifikatlari ro'yxatini tasdiqlash haqida" buyruqni imzolagan.[11] Buyruq mazmuni quyidagich:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-yanvardagi 38-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi [qaroriga](#) muvofiq buyuraman:[12]

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlari qoplab beriladigan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar va xalqaro buxgalter sertifikatlari ro'yxati [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.[11]

Ushbu qarorga ko'ra hozirgacha ko'pchilik yosh buxgalterlar va bu soha bo'yicha o'z bilimini oshirmoqchi bo'lgan mutahxassislar uchun ancha yengillik yaratib bergan.

Moliyaviy hisobni xalqaro standartlari bo'yicha harajatlarni qoplab berish sertifikatlarini quyidagi jadvalda ko'rishingiz mumkin.(2-jadval)



2-jadval. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlari qoplab beriladigan buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar va xalqaro buxgalter sertifikatlari ro'yxati.[13]

T/r	Buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro tashkilotlar nomi	Buxgalteriya hisobi sohasidagi xalqaro buxgalterlar sertifikatlari nomi	Xalqaro sertifikatlar doirasidagi buxgalteriyahisobiga tegishli fan yoki kurslari nomi
1.	Association of Chartered Certified Accountants (ACCA)	Association of Chartered Certified Accountants (ACCA)	Moliyaviy hisobot "Financial Reporting (FR)"; Xalqaro moliyaviy hisobot diplomi "Diploma of International Financial Reporting (DipIFR)"; Audit va ishonch bildirish xizmatlari "Audit and Assurance (AA)".
2.	Certified Institute of Management Accountants (CIMA)	Certified Institute of Management Accountants (CIMA)	Moliyaviy hisobot va soliq solish "Financial Reporting and Taxation (F1)".
3.	Institute of Chartered Accountants in England and Wales (ICAEW)	Associated Chartered Accountant (ACA)	Audit va ishonch bildirish xizmatlari "Audit and Assurance"; Moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot "Financial Accounting and Reporting".

XULOSA.

Respublikamizda hisob tizimini isloh etishdagi olib borilayotgan ishlarni ijobiy baholagan holda aytish mumkinki bugungi kunda milliy hisobchilikni huquqiy bazasi to'la ta'minlandi. Hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Kichik tadbirkorlik subyekti toifasiga kiruvchi mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti, uni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini uslubiy muammolar haligacha to'liq hal etilmagan.

Shu maqsaddan kelib chiqib ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi takliflar berildi.

1. Kichik tadbirkorlik subyekti toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni, tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini tashkil etish kerak;
2. Kichik tadbirkorlik subyekti toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalarining buxgalteriya hisobini obyekt sifatida quyidagilar qaralishi kerak:
 - Moliyaviy hisob obyekt sifatida aktivlar va passivlar, daromad va xarajatlar (oshkor etiladigan umumlashgan ma'lumotlari).
 - Boshqaruv hisobi obyekt sifatida ishlab chiqarish yoki ichki xo'jalik hisobini elementlari, rejalashtirish, tahlil etish marketing va ichki nazorat obyektlarini elementlari.
3. Kichik tadbirkorlik subyekti toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalarida hisob siyosatining elementlari va Moliyaviy hisobotni konseptual asoslari xalqaro standartlarga mos ravishda tarkiblanishi va tasniflanishi kerak;



4. Kichik tadbirkorlik subyekti toifasidagi mehmonxona xo'jaligi korxonalari buxgalteriya hisobi va hisobotni yo'lga qo'yishning quyidagi muammolari hal etilishi kerak:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy hisobotni yo'lga qo'yish shakllarini tuzib chiqish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy hisobotlar elementlarini baholashni belgilash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida moliyaviy hisobotning muhim tamoyillarini tavsiflash.

Har qanday iqtisodiy obyektning boshqarish faoliyatining asosini murakkab qurilishga ega bo'lgan axborot tizimlari tashkil qiladi, ularning faoliyat turi va korxonasi, tashkilot, firmaning ko'lamiga bog'liq.

References:

1. [279-I-coh 30.08.1996. Buxgalteriya hisobi to'g'risida \(lex.uz\)](#)
2. Urazov K.B Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari. Toshkent: «Fan», 2005. 29-b.
3. Yahyaev Q. Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.: G'afur G'ulom, 2010 y., 34 b.
2. SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // Xalq so'zi. 16.01.2017y.
3. N. Jo'rayev, O. Bobojonov, F. Abduvoxidov, D. Sotivoldiyeva Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik.TDIU. T.: 2007. -12 b.
4. Rayimovna, E. S. (2022). Issues of Compliance of Financial Statements with International Standards. Journal of Corporate Finance Management and Banking System (JCFMBS) ISSN: 2799- 1059, 2(02), 1-10.
5. Tashnazorov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2019.
6. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2013-yil 16-iyuldagi 70-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Kichik tadbirkorlik subektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi" nomli 20-BHMS.
7. [IFRS - IFRS Accounting Standards Navigator](#)
8. "Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to'g'risida"gi Nizom O'zR MV.ning 2003-yil 23-dekabrda 131-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zR AV.da 2004-yil 20-yanvarda 1297- son bilan ro'yxatga olingan.
9. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 54-son buyrug'i 21-sentabr 2021-yil Toshkent sh.
10. [38-coh 26.01.2021. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha o'qitish va buxgalterlarni xalqaro sertifikatlash doirasida imtihonlarni topshirish xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida \(lex.uz\)](#)
11. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2021-yil 21-sentabrdagi 54-son [buyrug'iga](#) ilova Toshkent sh.